

TASAVVUF ILMINING PAYDO BO'LISHI

Kurbanova Gullola Bakhramovna

GulDPI Pedagogika kafedrası (PhD) katta o'qituvchi

Abdushukurova Mahliyo Ikrom qizi

GulDPI 2-kurs talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11445977>

Annotatsiya. Ushbu maqolada tasavvuf ilmining paydo bo'lishi va uning kelib chiqishi tarixi, kimlar hissa qo'shganligi haqida so'z boradi. VIII asr o'rtalaridagi tasavvufilmi aks etgan.

Kalit so'zlar: ma'rifat, tasavvuf, tariqat, shariat, haqiqat, hikmat.

THE EMERGENCE OF MYSTICAL SCIENCE

Abstract. This article talks about the history of the emergence of Sufism and its origin, who contributed. The science of Sufism in the middle of the VIII th century is reflected.

Keywords: enlightenment, Sufism, secti, sharia, truth, honesty, wisdom.

ВОЗНИКНОВЕНИЕ МИСТИЧЕСКОЙ НАУКИ

Аннотация. В данной статье говорится о возникновении суфизма и истории его возникновения, вынесший вклад в науку суфизм в середине VIII века.

Ключевые слова: просвещение, суфизм, секта, шариат, правда, честность, мудрость.

Tasavvuf o'rta asrlarda musulmon sharqida keng tarqalgan bu ta'limot dastlab VIII asrning o'rtalarida Iroqda paydo bo'lgan. Tasavvuf ta'limoti asosida inson faoliyati va uning kamoloti yotadi. Movorounnahrning turli o'lkalarida tasavvufning turli tariqatlari paydo bo'lgan.

Turkistonda XII asrda Yassaviya, XII asrning o'rtalarida Xorazmda Kubroviya, XIV asrda Buxoroda Naqshbandiya va boshqa tariqatlar vujudga kelgan. Va shu bilan bir qatorda tasavvuf, tariqat so'zlarining manosi ham to'xtalib o'tamiz. Tasavvuf sunfiylik musulmonlarni halollikka, poklikka tenglikka chorlovchi har kimning o'zining halol mehnati bilan yashashga, boshqalarning kuchidan foydalanmaslikka davat etuvchi ta'limot.

Tariqat esa, tasavvuf qoidalariga amal qilib yashash, ya'ni komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi yo'l.

Tasavvuf tadrijiy taraqqiyotga ega bir ta'limot bo'lib, islom olamida VIII asrda paydo bo'lgan. Tasavvuf bu so'fiylik bo'lib bir nechta tariqatlarga bo'lingan. Dastlab u zohidlik ko'rinishida kurtak yozadi. Gap shundaki Muhammad s.a.v.vafotlaridan keyin musulmonlar olamida bo'linish yuz beradi. Ayniqsa xalifa Usmon zamonida boylikka ruju, qimmatbaho tafakkur

bilan qarindosh urug'lar, yaqin do'st birodarlarini siylash rasm, ya'ni urf odatga, odatiy holga aylanib qoldi. Tasavvuf so'fiylik islomda insonni ruhiy va axloqiy jihatdan komillik sari yo'llovchi ta'limot. Tasavvuf so'zining o'zagi, mazmuni haqida olimlar turli fikr va taxminlar bildirganlar. Ular ichida Ibn Xaldunning fikri haqiqatga yaqin deb e'tirof etilgan. Muqaddima asarida tasavvuf "suvfi" jun, po'stin degan manolarni anglatadi. Zero odamlar tarkidunyo qilgan Zohidlar jundan to'qilgan po'stin kiyishni odat qilganlar bu bilan ular bashang kiyinib yuruvchi ahli insonlardan farqli hayot tarzini o'zlarida namoyon etgan deydi. Tasavvuf ilmining paydo bo'lishi bu asosan insonlarning diniy bilimlarini ham o'stirib borganlar. Tasavvuf va sufiy IX asrning boshlarida yashagan Abu Hoshim sufiydan boshlab joriy etilgan. Unda oldingi davrlarda bu atama o'rnida "zuhd" "zohidlik" "tarkidunyochilik" taqvodorlik kabi so'zlar ishlatilgan. Mening fikrimcha tasavvuf ta'limoti shunday ta'limotki, insonlarni yaxshilikka, ezgu ishlarga undovchi ta'limotdir. Sababi bu tasavvuf insonlarni bir biriga yaqinlashtira oladigan kuch hisoblanadi. Men uchun bir narsa qiziqki qachon inson komillik darajasiga yeta oladi?

Tasavvuf ta'limotida juda ko'p narsalar qoralanadi, ya'ni birinchi o'rinda nafs balosi bo'lib insonlarga nafsni yeng, o'zingdan hech qachon nafsingni ustun qo'yma deyдилar. Nafs bu meningcha shaytoniy hirs bo'lib insonlarni yomonlik sari yetaklaydi.

Nasr yo'lga kirgan kishi rasvo bo'lur

Yo'ldan ozib toyib, tuzib gumrox bo'lur

Yotsa, tursa shayton bilan hamroh bo'lur.

Nafs shunday bir baloki, agar u sizdan ustun chiqib qolsa, sizni xonavayron qilishi turgan gap. Nafs turli xil ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Masalan mol mulkning nafi, zinoning nafi, yetuklik va ichkilikning nafslari. Tasavvufda esa nafsga aslo o'rin yo'q. Tasavvuf ilmiga hissa qo'shganlar. Ahmad Yassaviy, Bohouddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro kabi bir necha allomalarimiz katta hissa qo'shgan. Alloma, yetuk tasavvufchi shaxs Ahmad Yassaviy haqida gapiradigan bo'lsak u birgina "Hikmatlar" asari bilan mashhur. Chunki bu "Hikmatlar" asari insonlarni odob axloq, ma'naviyat kabi tushunchalar turadi. Yassaviyning ko'p asarlari nafsni yengish bo'lib insonlarni nafsga yengilib qolmaslikka o'rgatadi.

Nafs amrida har nechaki topilgayсан,

Ko'p garchi butunlik tilasang singaysan,

Kam ista- yu necha elga yo'li yoling'aysan,

Nafsingga xilq aylakim tinig'ahsen.

Ustoz Maqsud Shayxzoda ham Yassaviy haqida shunday fikr bildiradi: "shubxasizki, Xo'ja Ahmad Yassaviyning yozib qoldirgan " Hikmat" kitobi keyinchalik til jihatidan va ma'no tomonidan qanchalik o'zgarishlarga duchor bo'lmasin, uning asl vazni avvalgi holicha qolgan.

Chunki uning Hikmat asari hozirgi sherlar yoziladigan barmoq vaznida yozilgan. Chunki birovlar ilgari vazni shuncha ildizidan o'zgartirib, qaytadan ishlashlari amri mahol bo'lgan edi deyilar. Aslini olganda Ahmad Yassaviy hayoti haqida ma'lumot juda kam. U Yassi yaqinidagi Sayram qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Ibrohim Turkistonning taniqli shayxlaridan bo'lgan. Onasi Qorasoch momo nomi bilan mashhur. Ahmadning yoshligi ancha qiyin kechadi.

Otasi erta vafot etadi. Ahmad Yassaviy yirik mutassavvif olim Arslonning qo'lida tarbiyalangan, so'ng Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniy qo'lida tahsil oladi. Ahmad Yassaviy tasavvuf ilmini shunchalik chuqur egallaganki, xalq orasida "Madinada Muhammad Turkistonda Xoja Ahmad" degan naql paydo bo'lgan.

Tasavvufda shoir dohil bo'lgan tariqat esa Naqshbandiya atalishidan ham ma'lumki, bu tariqat bevosita Bohouddin Naqshband kim? Muhammad Bohouddin an- Naqshband al- Buxoriy hazratlari shariatning aqliy, ilmiy, ma'rifiy, hissiy taraqqiyotiga qanday hissa qo'shganlar? Qanday qilib Bahouddin Naqshband "balagardon" degan rutbaga musharraf bo'lganlar? Naqshbandiya qanday tariqat? Uning Yassaviyadan qanday farqi bor? Shu va shunga o'xshash savollarga javob topmay turib Bahouddin Naqshbandning milliy marifiy taraqqiyotimizda tutgan o'rnini tayin etish hatto Naqshbandning asarlarining mohiyatiga yetish ham mushkul ishdur. XV asrgacha bo'lgan boy merosimizga Shams ul millatimiz Alisher Navoiyning nazari bilan qarashga o'rganib qolganmiz. Naqshbandiyaning hayot faoliyatlari u kishi qiyomoga yetkazgan tariqat haqida keyingi bir ikki yilda chop etilgan maqola- yu kitoblarda juda ko'p gapiriladi.

Mening fikrimcha tasavvuf ta'limoti asosida insonlarni bir biriga yaqinlashtirish, mehr muruvvat ko'rsatish, insoniylikni saqlab qolish demakdir. Tasavvuf ta'limotining asoschilari bu dunyoning noz ne'matlaridan voz kechib o'zlarini komillik sari yetaklagan insonlardir.

REFERENCES

1. 10-sinf adabiyoti
2. Sultonmurod Olim "Naqshband va Navoiy"
3. Sadulla Siyoyevning "Ahmad Yassaviy"
4. "Ahmad Yassaviy hikmatlari"